

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI YANGI O‘ZBEKISTON UNIVERSITETI
QOSHIDAGI IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/07.07.2025.I.192.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

YANGI O‘ZBEKISTON UNIVERSITETI

MAMAJONOVA MUXLISAXON MUZAFFAR QIZI

**OLIY TA’LIM MUASSASALARINING XALQARO REYTING
KO‘RSATKICHLARINI OSHIRISHNING STRATEGIK BOSHQARUV
MEXANIZMLARI**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract
of Doctor of Philosophy (PhD) in Economics**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi

Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari3

Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi

Strategic Governance Mechanisms for Enhancing International University Rankings Indicators..... 27

Мамажонова Мухлисахон Музаффар кизи

Стратегические механизмы управления повышением показателей международных рейтингов высших учебных заведений..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI YANGI O‘ZBEKISTON UNIVERSITETI
QOSHIDAGI IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/07.07.2025.I.192.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

YANGI O‘ZBEKISTON UNIVERSITETI

MAMAJONOVA MUXLISAXON MUZAFFAR QIZI

**OLIY TA’LIM MUASSASALARINING XALQARO REYTING
KO‘RSATKICHLARINI OSHIRISHNING STRATEGIK BOSHQARUV
MEXANIZMLARI**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5216 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Yangi O'zbekiston universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.newuu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarova Xilola Uktamovna

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Marahimov Azizbek Avazbekovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Yangi O'zbekiston universiteti qoshidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/07.07.2025.I.192.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «__» ____ soat __ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Toshkent, M.Ulug'bek tum., Movarounnahr ko'chasi, 1-uy). Tel.: +998 (71) 202-41-11. e-mail: info@newuu.uz.

Dissertatsiya bilan Yangi O'zbekiston universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Toshkent, M.Ulug'bek tum., Movarounnahr ko'chasi, 1-uy). Tel.: +998 (71) 202-41-11. e-mail: info@newuu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____ dagi ____ -raqamli reestr bayonnomasi.)

B.R. Eshchanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

M.M. Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Marahimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, bilimga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi hamda xalqaro maydondagi raqobatning kuchayishi sharoitida barqaror iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatbardosh inson kapitalini tayyorlashga yo'naltirilgan oliy ta'lim tizimining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jahon banki hisobotlarida ta'kidlanganidek, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari inson kapitalini rivojlantirish, demokratik va inklyuziv jamiyatni shakllantirish hamda fan va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot modelini rivojlantirishda muhim strategik institutlar sifatida namoyon bo'lmoqda¹. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarining samaradorligi nafaqat ta'lim sifati, balki ilmiy tadqiqotlar natijalari, innovatsion salohiyati va strategik boshqaruv darajasi bilan ham belgilanmoqda.

So'nggi yillarda THE World University Rankings, QS World University Rankings va Academic Ranking of World Universities (ARWU) kabi xalqaro reyting tizimlari oliy ta'lim muassasalarining ta'lim va ilmiy faoliyati sifati, ilmiy iqtiboslilik darajasi, xalqaro hamkorlik ko'lami hamda institutsional boshqaruv samaradorligini baholovchi muhim global indikatorlar tizimiga aylandi. Ushbu reytinglar universitetlarning global akademik makondagi o'rnini belgilash bilan birga, davlat siyosatini shakllantirish, resurslarni taqsimlash va oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga oid strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirish masalasi tasodifiy yoki qisqa muddatli tashabbuslar doirasida emas, balki puxta ishlab chiqilgan va tizimli strategik boshqaruv mexanizmlari asosida hal etilishini talab etmoqda.

Yangi O'zbekistonda zamonaviy tarkibiy tuzilmaga ega bo'lgan, raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish hamda aholi farovonligini oshirishda ta'lim, jumladan, oliy ta'lim tizimi salohiyatidan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz. Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir"² Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida oliy ta'lim muassasalariga akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy mustaqillik berish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, mehnat bozori talablariga mos yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini joriy etish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari yaratildi.

¹ World Bank. *Education Overview*. – <https://www.worldbank.org>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 21-dekabr. - <https://gov.uz/uz/news/view/36090>

Biroq amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirish jarayoni hali-hanuz fragmentar ya'ni tizimli bo'lmagan yondashuvlar, alohida indikatorlarni qisqa muddatda yaxshilashga qaratilgan choralar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa reytinglarda barqaror va uzoq muddatli o'sishni ta'minlaydigan institutsional va strategik boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishga yo'naltirilgan strategik boshqaruv mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan kompleks tadqiq etish, ularni milliy oliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash, ularning global akademik maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlash hamda reyting ko'rsatkichlariga yo'naltirilgan strategik boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylandi. Bu borada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish, universitetlar faoliyatining samaradorligini oshirish hamda xalqaro universitet reytinglarining metodologik asoslari E. Hazelkorn, S. Marginson, P. Altbach, J. Salmi, B. Kehm, J.-C. Shin kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan³.

³ Hazelkorn, E. Rankings and the Reshaping of Higher Education. London: Palgrave Macmillan, 2015., Marginson, S. Higher Education and the Common Good. Melbourne: Melbourne University Publishing, 2017., Altbach, P.G. Global Perspectives on Higher Education. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2016., Kehm, B.M., & Shin,

Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvining institutsional va tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, universitetlarning globalashuv sharoitidagi transformatsiyasi hamda "University 3.0" va "University 4.0" modellari asosida rivojlanishi masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar R. Barnett, B. Clark, E. Sengupta, P. Blessinger, G. Kovbts, O.B. Suxorukova, N.V. Kozlovskix, Ye.D. Koryagina kabi nufuzli xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan⁴.

Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi faoliyatining samaradorligini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda reyting indikatorlariga ta'sir etuvchi omillar J. Pounder, O.S. Al-Deikah, S.N. Olimat, S.V. Nazyuta, I.V. Pivovarov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida yoritilgan⁵.

Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish va moliyalashtirish, ularning rivojlanish strategiyalarini shakllantirish hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'zbekistonlik olimlar — M.X. Saidov, S.M. Buzrukxonov, O.S. Qahhorov, A.A. Mahmudov, N.J. Sotvoldiyev, A.B. Sherov, Sh. Qurbonov va N. Achilov, X.Umarovalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan⁶.

Mazkur ilmiy izlanishlar oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishiga qaramasdan, yangi universitetlar sharoitida xalqaro reyting ko'rsatkichlariga

J.C. "The Impact of University Rankings on Higher Education Policy in Europe." *Higher Education*, 63(1), 2012, 141–157.

4 Barnett, R. *Being a University*. London: Routledge, 2011., Clark, B.R. *Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation*. Oxford: Pergamon, 1998., Sengupta, E., Blessinger, P. and Nezaami, N. (2022), "Introduction to Governance and Management in Higher Education", Sengupta, E., Blessinger, P. and Nezaami, N. (Ed.) *Governance and Management in Higher Education (Innovations in Higher Education Ta'lim berish sifati (Teaching) and Learning, Vol. 43)*, Emerald Publishing Limited, Bingley, pp. 3-11. <https://doi.org/10.1108/S2055-364120220000043001>, Gergely Kovbts. The change of organizational structure of higher education institutions in Hungary: a contingency theory analysis. *International Review of Social Research* 2018; 8(1): 74–86. <https://doi.org/10.2478/irsr-2018-0009>, Сухорукова О.Б. Совершенствование организационной структуры управления высшим учебным заведением в условиях применения процессного подхода. Диссер.на соис. ученой степени доктора эконом. наук. Новосибирск, 2010 г., 195 с., Козловских Н.В. Совершенствование системы стратегического управления в высших учебных заведениях: диссертация ... кандидата экономических наук: 08.00.05 / Козловских Наталья Васильевна. - Москва, 2009.- 185 с. Корягина Е.Д. Совершенствование механизмов управления развитием высшего образования в России. Диссер.на соис. ученой степени доктора эконом. наук. Москва, 2022 г., 169 с.

⁵ James Pounder. *Organizational Effectiveness in Higher Education*. April 2022. *Educational Management & Administration* Al-Deikah, O.S., Olimat, S.N. (2020). The role of university administration in 37 developing scientific research for faculty members in the universities of northern 38 Jordan from their point of view. *Journal of the Islamic University of Educational 39 and Psychological Studies*, 28 (4), 793-819., Назюта С.В. Развитие методического инструментария управления коммерциализацией результатов интеллектуальной деятельности организаций (на примере высших учебных заведений). Диссер.на соис. ученой степени доктора эконом. наук. Москва, 2022 г., 176 с.

⁶ Saidov M.X. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv: o'quv qo'llanma /M.X.Saidov. – T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2011. 432 b., Buzrukxonov S.M. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida oliy ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. – Toshkent, 2022. – 38 b., Qahhorov O.S. Ta'lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini baholashdagi yondashuvlar va usullar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017-y., Maxmudov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslari boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati. - T.: IMPRESS MEDIA, 2019-y., Sotvoldiev N.J. Oliy ta'lim muassasasini boshqarish – iqtisodiy diagnostika obyekti sifatida // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020-y., Sherov, A. (2019). Reforms in the system of higher education and their impact on financial stability. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 21. Umarova X.U. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2022.

yo‘naltirilgan strategik boshqaruv mexanizmlarini tizimli ravishda shakllantirish, reyting indikatorlarini institutsional boshqaruv tizimiga integratsiya qilish, benchmarking va gap analysis yondashuvlari asosida rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish masalalari ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada kompleks yoritilmagan. Mazkur holat ushbu dissertatsion tadqiqotda ko‘rib chiqilgan tizimli muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarning dolzarblilik darajasini yanada oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi “Oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini oshirishga yo‘naltirilgan strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro universitet reytinglarining (THE, QS, ARWU) nazariy va metodologik asoslarini tizimli o‘rganish hamda ularning oliy ta‘lim tizimi rivojlanishiga ta‘sirini tahlil qilish;

yangi tashkil etilgan va tez rivojlanayotgan universitetlarning xalqaro reytinglardagi muvaffaqiyatli tajribasini o‘rganish va benchmarking asosida qiyosiy tahlil o‘tkazish;

Yangi O‘zbekiston Universitetining mavjud faoliyat ko‘rsatkichlarini xalqaro reyting mezonlari bilan solishtirish hamda “gap analysis” asosida rivojlanish bo‘shliklarini aniqlash;

universitetning xalqaro reytinglarga kirishini ta‘minlashga qaratilgan SMART mezonlariga asoslangan strategik KPI tizimini ishlab chiqish;

ilmiy faoliyat, xalqaro hamkorlik va akademik nufuzni oshirishga qaratilgan reputatsiyani boshqarish mexanizmlarini (Reputation Management Framework) taklif etish;

Yangi O‘zbekiston Universitetining xalqaro reytinglarga kirishini ta‘minlashga qaratilgan 2025–2030-yillarga mo‘ljallangan strategik yo‘l xaritasini ishlab chiqish;

reyting ko‘rsatkichlari va indikatorlarini muntazam monitoring qilish, tahlil etish va boshqarish uchun maxsus tashkiliy tuzilma – Rankings & Institutional Research Office (Reytinglar va Institutsional tadqiqot ofisi) modelini ishlab chiqish va uning funksional mexanizmlarini asoslash;

Yangi O‘zbekiston Universiteti tajribasi asosida uni boshqa oliy ta‘lim muassasalarida qo‘llash imkoniyatlarini asoslash hamda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Yangi O‘zbekiston Universitetining xalqaro reytinglarda ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan boshqaruv jarayonlari va mexanizmlari olingan.

Tadqiqotning predmetini universitetlarning xalqaro reytinglarda samarali ishtirokini ta'minlovchi strategik boshqaruv mexanizmlari, indikatorlar tizimi va KPI asoslari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, umumlashtirish va rasmiy-mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv, bibliografik va vaziyatli tahlil (case study), tasniflash va guruhlash, benchmarking, gap analysis, ekspert baholash, so'rovnomma (anketa), statistik va bibliometrik tahlil, iqtisodiy-matematik usullar (korrelyatsion va regressiya tahlillari, trend va prognozlash), modellash va hamda boshqa zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Oliy ta'lim muassasalarini strategik boshqarish tizimi THE World University Rankings metodologiyasi indikatorlariga tayangan holda universitet faoliyatini ta'lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion yo'nalishlar kesimida baholashni nazarda tutuvchi indikatorli strategik boshqaruv arxitekturasini takomillashtirildi;

THE, QS va ARWU xalqaro universitet reytinglari metodologiyalarida qo'llaniladigan indikator tarkibi va og'irlik koeffitsiyentlarining institutsional jihatdan farqlanishi universitetlarning reytingga yo'naltirilgan strategik xulq-atvorini turlicha shakllantirishi aniqlanib, mazkur farqlarni hisobga olgan holda ta'lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat ustuvorliklarini qayta belgilashga qaratilgan reyting-spetsifik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni nazarda tutuvchi ilmiy yondashuvni takomillashtirish taklifi asoslandi.

THE World University Rankings indikatorlari kesimida yangi (≤ 50 yil) va an'anaviy (> 100 -yil) universitetlar ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash natijasida yangi universitetlarda ta'lim berish sifati ($-10,2$ foiz) va ilmiy tadqiqotlar ($-8,3$ foiz) indikatorlaridagi nisbiy past ko'rsatkichlar ilmiy iqtiboslanish darajasi ($+8,5$ foiz) hamda xalqaro ko'rinish ($+8,1$ foiz) indikatorlari bo'yicha ustun natijalar bilan muvozanatlanishi aniqlanib, ushbu indikatorlar o'rtasidagi muvozanatni hisobga oluvchi reytingga yo'naltirilgan strategik boshqaruv yondashuvini takomillashtirish taklifi asoslandi;

Oliy ta'lim muassasalarida THE World University Rankings metodologiyasining asosiy bloklarini (tadqiqot sifati, tadqiqot muhiti, ilmiy iqtiboslanish darajasi, ta'lim berish sifati, xalqaro ko'rinish va sanoat bilan hamkorlik daromadi) institutsional vazifalar kesimida parchalash orqali har bir indikator uchun aniq KPIlar, o'lchov birliklari, mas'ul tuzilmalar va monitoring davriyligini qamrab olgan reytingga yo'naltirilgan KPI tizimi shakllantirilib, ushbu KPIlarni raqamli reyting monitoringi vositasida strategik boshqaruv qarorlari bilan bog'lashga asoslangan boshqaruv arxitekturasini takomillashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qiyosiy tahlil va rivojlanish bo'shliqlarini aniqlash modeli (Benchmarking–Gap Analysis) Yangi O'zbekiston Universitetining xalqaro reytinglar bo'yicha mavjud holatini baholash, rivojlanish bo'shliqlarini aniqlash va ustuvor strategik yo'nalishlarni belgilashda amaliy tahliliy vosita sifatida ishlab chiqilgan hamda

yosh universitetlar uchun reyting strategiyasini asoslashda foydalanish mumkinligi ko'rsatib berilgan;

THE metodologiyasiga moslashtirilgan integratsiyalashgan strategik ko'rsatkichlar tizimi (SMART-KPI) oliy ta'lim muassasalarida reyting ko'rsatkichlarini universitet, fakultet va bo'limlar kesimida monitoring qilish, natijadorlikni baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tayyor amaliy mexanizm sifatida taklif etilgan;

Universitet nufuzini boshqarish modeli (Reputation Management Framework) xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb etish, ilmiy nashrlar sifati va xalqaro talabalar ulushini oshirish orqali universitet nufuzini tizimli boshqarishga xizmat qiluvchi amaliy konseptual yechim sifatida ishlab chiqilgan;

2030-yilgacha mo'ljallangan strategik rivojlanish yo'l xaritasi Yangi O'zbekiston Universiteti hamda boshqa yangi universitetlar uchun xalqaro reytinglarga kirish jarayonini bosqichma-bosqich rejalashtirish, resurslarni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish va natijalarni monitoring qilishda amaliy qo'llanma sifatida foydalanish imkonini beradi;

Reytinglar va institutsional tadqiqotlar bo'limi (Ranking & Institutional Research Office) modeli universitetlarda reyting indikatorlarini doimiy monitoring qilish, ma'lumotlarni tahlil etish va strategik qarorlarni ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilishni ta'minlovchi amaliy tashkiliy mexanizm sifatida ishlab chiqilgan;

Raqamli reytinglar monitoringi paneli – DRD (Digital Ranking Dashboard) reyting indikatorlari bo'yicha real vaqt rejimida monitoring, prognozlash va erta ogohlantirish imkonini beruvchi amaliy raqamli boshqaruv platformasi sifatida taklif etilgan hamda oliy ta'lim muassasalarida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tamoyillarini joriy etishga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda oliy ta'lim tashkilotlarining statistik ma'lumotlaridan foydalanilgani, keltirilgan tahlil natijalarining iqtisodiy-matematik usullar vositasida asoslangani, shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa va amaliy tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatida amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** shundan iboratki, dissertatsiyada oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarda, xususan THE xalqaro universitetlar reytingida, ishtirokini ta'minlash masalalari strategik boshqaruv nuqtai nazaridan kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Ishlab chiqilgan qiyosiy tahlil va rivojlanish bo'shliqlarini aniqlash modeli, integratsiyalashgan asosiy ko'rsatkichlar tizimi, universitet nufuzini boshqarish modeli hamda reytingga yo'naltirilgan boshqaruv arxitekturasi oliy ta'lim muassasalarida reyting ko'rsatkichlarini institutsional darajada

boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini kengaytiradi hamda kelgusida yangi va rivojlanayotgan universitetlarda reytingga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalaridan oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha strategik qarorlar, dasturlar, siyosatlar, yo'l xaritalari va chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish jarayonida foydalanish mumkin. Tadqiqotda taklif etilgan 2030-yilgacha mo'ljallangan strategik rivojlanish yo'l xaritasi, reytinglar va institutsional tadqiqotlar bo'limi modeli hamda raqamli reytinglar monitoringi paneli universitetlar boshqaruvi amaliyotida joriy etilishi mumkin. Shuningdek, dissertatsiya natijalaridan "Strategik boshqaruv", "Universitet menejmenti", "Ta'lim siyosati va reyting tizimlari" fanlari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mazkur dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida quyidagi natijalar amaliyotga joriy etildi:

oliy ta'lim muassasalarini strategik boshqarish tizimini THE World University Rankings metodologiyasi indikatorlariga tayangan holda takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan indikatorli strategik boshqaruv arxitekturasida universitet faoliyatini ta'lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion yo'nalishlar kesimida baholash mexanizmlari amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur yondashuv doirasida reyting indikatorlariga mos "Entrepreneurial university" (tadbirkor universitet) modelida rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan strategik boshqaruv qarorlaridan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent davlat texnika universiteti hamda Samarqand davlat universiteti faoliyatida xalqaro reytinglardagi nufuzni oshirish jarayonlarida foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 17-dekabrda 02/17-2025-99-son ma'lumotnomasi).

THE, QS va ARWU xalqaro reytinglari metodologiyalarida qo'llaniladigan indikatorlar tarkibi va og'irlik koeffitsiyentlarining institutsional jihatdan farqlanishini hisobga olgan holda reytingga yo'naltirilgan strategik xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha takomillashtirilgan ilmiy yondashuv asosida ta'lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat ustuvorliklarini qayta belgilashga qaratilgan reyting-spetsifik boshqaruv qarorlari amaliyotga joriy etildi. Mazkur ilmiy takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Chirchiq davlat universiteti hamda Jizzax davlat pedagogika universiteti faoliyatida strategik boshqaruvni takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish hamda data-driven management tamoyillarini joriy etishda qo'llanildi. Shuningdek, mazkur yondashuvdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonida belgilangan pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlari boshqaruv tizimini

takomillashtirish jarayonida foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 12-dekabrda 03-33-3587-son ma'lumotnomasi).

THE World University Rankings metodologiyasining asosiy bloklarini institutsional vazifalar kesimida parchalash orqali reytingga yo'naltirilgan KPI tizimini shakllantirish va ushbu KPIlarni raqamli reyting monitoringi vositalari orqali strategik boshqaruv qarorlari bilan bog'lashga asoslangan boshqaruv arxitekturasi bo'yicha ilmiy takliflardan Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan oliy ta'lim muassasalarining reyting ko'rsatkichlarini baholash, indikatorlar monitoringini takomillashtirish hamda milliy reyting indikatorlari tizimi va reyting platformasining metodologik modelini ishlab chiqish jarayonlarida foydalanildi (Milliy agentlikning 2025-yil 16-dekabrda 03/18-144-son ma'lumotnomasi).

yangi (≤ 50 yil) va an'anaviy (> 100 yil) universitetlar ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlarni aniqlashga asoslangan Benchmarking–Gap Analysis modeli reytingga yo'naltirilgan strategik boshqaruv yondashuvini takomillashtirish doirasida amaliy tahliliy vosita sifatida qo'llanildi. Mazkur model asosida ****Yangi O'zbekiston universiteti****ning xalqaro reytinglarga kirish strategiyasini belgilash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va rivojlanish bo'shliqlarini qisqartirish bo'yicha qarorlar ishlab chiqishda Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tomonidan foydalanildi (2025-yil 18-dekabrda 11-05-7129/01-son ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 6 ta, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza shaklida bayon qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (ulardan 3 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda) hamda 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 220 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi bayon qilinib, tadqiqot usullari ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi,

joriy qilinishi hamda aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting tizimlarida ishtirokining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xalqaro universitet reytinglarining mohiyati, global oliy ta'lim makonidagi institutsional roli hamda reyting indikatorlarining boshqaruv tizimiga ta'siri nazariy va metodologik jihatdan kompleks tahlil qilindi. Shuningdek, Times Higher Education World University Rankings (THE WUR) metodologiyasining shakllanish evolyutsiyasi, indikatorlar mantiqi hamda yangi universitetlar uchun reytingga kirish strategiyalarining xalqaro tajribasi asosida Yangi O'zbekiston Universiteti (YO'U) uchun moslashtirish yo'nalishlari asoslab berildi.

Bob doirasida xalqaro reytinglarning metodologik farqlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning har biri universitetlardan turlicha strategik xatti-harakatlarni talab qilishi ilmiy asoslandi. Xususan, THE, QS va ARWU reytinglari indikatorlar tarkibi va og'irlik koeffitsientlari jihatidan farqlanadi (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro reytinglar metodologiyasining asosiy farqlari⁷

Reyting turi	Asosiy indikatorlar	Og'irlik (foizda)	Xususiyati
THE WUR	Ta'lim muhiti, tadqiqot, ilmiy iqtiboslilik darajasi, xalqaro ko'rinish, sanoat bilan hamkorlik daromadlari (13 indikator)	Ta'lim – 30%, Tadqiqot – 30%, Ilmiy iqtiboslilik darajasi – 30%, Xalqaro ko'rinish – 7.5%, Sanoat daromadlari – 2.5%	Bibliometrik ma'lumotlar Scopus'dan olinadi
QS WUR	Akademik reputatsiya, ish beruvchilar reputatsiyasi, ilmiy iqtiboslilik darajasi, talaba/professor nisbati, xalqaro talabalar va professorlar ulushi	Akademik reputatsiya – 40%, Ish beruvchilar – 10%, Ilmiy iqtiboslilik darajasi – 20%, Talaba/professor – 20%, Xalqaro – 10%	Asosiy urg'u reputatsiya so'rovlariga qaratilgan
ARWU	Nobel mukofotlari, Fields medali, yuqori impaktli maqolalar, ilmiy nashrlar soni	6 ta indikator, asosan ilmiy yutuqlarga asoslanadi	Tadqiqot natijalari va mukofotlarga katta e'tibor


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, XXI asr boshidan boshlab reytinglar oliy ta'limda oddiy “baholash jadvali” doirasidan chiqib, ta'lim siyosati, resurs taqsimoti va universitetlarning strategik boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi mexanizmga aylandi. Reytinglar bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyani bajaradi: (i) universitetlar uchun strategik “kompas” (ichki menejmentga signal), (ii) davlat siyosati uchun benchmarking va natijadorlik mezoni, (iii) global ta'lim bozorida reputatsiya kapitalini shakllantiruvchi instrument. Mazkur holat reytinglarning “indikatorlar siyosati” (indicator-based governance) fenomeni sifatida namoyon bo'layotganini tasdiqlaydi: unda universitetlar raqobatbardoshligi tobora ko'proq o'lchanadigan natijalar (nashrlar, ilmiy iqtiboslilik darajasi, xalqaro hamkorlik, sanoat integratsiyasi) bilan izohlanadi.

THE reytingi ta'lim, tadqiqot va ilmiy iqtiboslilik darajasini bir butun ekotizim sifatida baholab, boshqaruv uchun ko'proq “tizimli signal” beradi; QS

⁷ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

reputatsion komponentlar orqali brend kapitaliga kuchliroq bog‘lanadi; ARWU esa ilmiy yutuqlarning elita mezonlariga tayangan holda baholaydi. Shu sababli, reytingga yo‘naltirilgan strategiya tanlovida metodologik farqlarni hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqotning keyingi qismida THE WUR metodologiyasi alohida tahlil qilindi. THE reytingining 2004-yildan buyon evolyutsiyasi ko‘rsatadiki, reyting dastlab cheklangan universitetlar doirasida shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik qamrovi va metodologik mukammalligi ortib borib, global oliy ta‘lim tizimining eng ta‘sirchan benchmark tizimlaridan biriga aylandi (1-rasm).



1-rasm Reytinglarning evolyutsiyasi (2004–2024)⁸

1-rasmdan ko‘rinadiki, reytinglar institutsional “bozor”ga aylandi. Dastlab elita universitetlar qamrab olingan bo‘lsa, keyinchalik reytinglar global miqyosda kengayib, yangi va nisbatan yosh universitetlar uchun ham xalqaro maydonga chiqish imkoniyatini yaratgan. Natijada reytinglar universitetlar strategiyasini shakllantirishda tashqi baholashdan tashqari, ichki boshqaruvning ham muhim kalibrovka instrumentiga aylandi.

Birinchi bob doirasida yangi universitetlarning reytingga kirish tajribalari ham tahlil qilindi. Xalqaro amaliyot (NTU, PSL, KAUST, POSTECH, Tampere kabi misollar) shuni ko‘rsatadiki, yosh universitetlar reytinglarda tezkor o‘shishga erishishda quyidagi yo‘nalishlarni ustuvorlashtiradi: xalqaro hammualliflikni kengaytirish orqali ilmiy iqtiboslilik darajasi ni oshirish; yuqori sifatli nashr siyosatini (journal targeting, internal peer-review, akademik writing support) joriy etish; grantlar portfelini kengaytirish; xalqaro professor-o‘qituvchilar va talabalar ulushini oshirish; sanoat bilan hamkorlik daromadi orqali innovatsion daromad kanallarini shakllantirish. Eng muhimi, bu yo‘nalishlar “indikatorlarni quvish” emas, balki indikatorlar orqali sifatni boshqarish konsepsiyasiga tayangan holda institut sifatida mustahkamlanadi.

⁸ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

O'zbekiston sharoitida reytinglar davlat siyosati darajasida muhim strategik vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu holat oliy ta'lim muassasalari uchun reyting indikatorlariga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zaruratini kuchaytiradi. Xususan, PF-5847 va PQ-151 hujjatlarida universitetlarning THE va QS reytinglarida Top-1000 talikka kirishini jadallashtirish, buning uchun esa ilmiy nashrlar, ilmiy iqtiboslilik darajasi, xalqaro ko'rinish va hamkorlik indikatorlarini kuchaytirish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda YO'Uning flagship universitet sifatidagi roli asoslab berilib, reyting metodologiyasi indikatorlarini ichki boshqaruvning tahliliy instrumentiga aylantirish tamoyili ilgari surildi.

Xalqaro reytinglar global oliy ta'lim tizimida "reputatsiya-resurs-natijadorlik" zanjiri orqali boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi institutga aylangan; THE WUR metodologiyasi esa kompleks tuzilmasi bilan universitetning ta'lim, tadqiqot, ilmiy ta'sir, xalqaro integratsiya va sanoat aloqalarini bir butun ekotizim sifatida baholash imkonini beradi. Yangi universitetlarning xalqaro tajribasi reytingga kirishning muhim sharti sifatida indikatorlarni ichki boshqaruv sikliga (ma'lumot yig'ish → tahlil → qaror → ijro → audit) integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur nazariy-metodologik asoslar YO'U uchun strategik boshqaruv mexanizmlarini (benchmarking, KPI/OKR, DRD, institutsional arxitektura) ishlab chiqish va amaliy modellashtirishga metodik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro universitet reytinglari tizimlari hamda ularga asoslangan boshqaruv mexanizmlarining nazariy qoidalari va amaliy tajribalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtirokini ta'minlashda ularning rivojlanish strategiyasi va institutsional salohiyatiga mos keluvchi indikatorlarga asoslangan boshqaruv vosita va usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.


Dissertatsiyaning **"Yangi universitetlarning xalqaro reytinglardagi faoliyatining benchmarking tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida so'nggi o'n yillikda global oliy ta'lim makonida shakllangan yangi universitetlar fenomeni tahlil qilingan, ushbu toifadagi oliy ta'lim muassasalarining THE World University Rankings (WUR) reytingi doirasidagi o'sish dinamikasi tadqiq etilgan hamda asosiy reyting indikatorlari bo'yicha rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Shuningdek, bob doirasida yangi universitetlarning reytinglarda muvaffaqiyat qozonish mexanizmlari benchmarking yondashuvi asosida qiyosiy o'rganilgan, indikatorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va kompensatsion rivojlanish modeli ilmiy jihatdan asoslangan hamda reputatsiya (nufuz) omillarining strategik xususiyatlari tahlil qilingan.

Bobning metodologik asosini benchmarking tahlil tashkil etib, u yetakchi yangi universitetlarning reyting indikatorlari bo'yicha natijalarini taqqoslash, ularning umumiy va mintaqaviy rivojlanish naqshlarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitiga mos strategik xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi. Mazkur yondashuv orqali xalqaro reytinglar yakuniy baholash vositasi sifatida emas, balki institutsional sifatni boshqarish indikatorlari tizimi sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot doirasida avvalo global oliy ta'lim sohasida keng qo'llaniladigan uchta yetakchi reyting tizimi – THE World University Rankings, QS World University Rankings va Academic Ranking of World Universities (ARWU) – qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, QS reytingi ko'proq reputatsiya so'rovlariga tayanadi, akademik hamda ish beruvchilar fikrini ustun qo'yadi. ARWU esa faqat ilmiy nashrlar soni va Nobel mukofoti sovrindorlari kabi tor doiradagi me'zonlarga asoslanadi. THE metodologiyasi esa bu ikki yondashuv orasida tizimli muvozanatni saqlaydi: u ta'lim, tadqiqot, ilmiy ta'sir, xalqaro hamkorlik va iqtisodiy integratsiyani birlashtiruvchi kompleks indikatorlar tizimiga ega. Shu bois THE metodologiyasi dissertatsiyada asosiy tahlil obyekti sifatida tanlandi.

THE metodologiyasining kuchli tomonlari sifatida quyidagilar aniqlandi: komplekslik va balanslashgan yondashuv – besh ustun universitet faoliyatining barcha asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi; fanlararo normalizatsiya – barcha nashrlar va ilmiy iqtiboslilik darajasi fan sohalaridagi o'rtacha miqdorga nisbatan normallashtiriladi, bu tabiiy fanlar va gumanitar yo'nalishlar o'rtasidagi tabiiy tafovutlarni kamaytiradi; ochiqlik va qayta ishlab chiqish imkoniyati – har yili metodologiyaning to'liq texnik tavsifi, hisoblash usullari va audit mexanizmlari oshkor etiladi.

Times Higher Education tomonidan e'lon qilinadigan World University Rankings ma'lumotlari tahlili asosida asos solinganiga 50 yildan kam bo'lgan universitetlar soni 2014-yilda 120 taga yaqin bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 650 tadan oshgani aniqlangan (2-rasm).



2-rasm. Yangi universitetlar sonining THE WUR reytingida o'sish dinamikasi⁹

Shu bilan birga, THE metodologiyasining zaif tomonlari ham tahlil qilindi: reputatsiya komponentining subyektivligi – Ta'lim berish sifati (Teaching) va Ilmiy tadqiqotlar (Research) ustunlarining yarmi reputatsiya so'rovlari orqali shakllanadi; til va nashr madaniyati asimmetriyasi – Scopus bazasining ingliz

⁹ Times Higher Education "Young University Rankings 2024 Data" asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

tilidagi nashrlarga yoʻnaltirilganligi; resurs asimmetriyasi – iqtisodiy koʻrsatkichlarning rivojlangan mamlakatlar universitetlariga ustunlik berishi. Bundan tashqari, “ranking dependency” xavfi – universitetlarning oʻz missiyasidan koʻra indikatorlar boʻyicha ball olishga yoʻnaltirilishi muammosi ham qayd etildi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, soʻnggi oʻn yillikda global reytinglar maydonida kuzatilgan asosiy transformatsion jarayon yangi tashkil etilgan (asos solinganiga 50 yildan kam boʻlgan) universitetlarning xalqaro reytinglarga tez kirib kelishi va qisqa muddatda sezilarli natijalarga erishishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon faqat universitetlar sonining ortishi bilan emas, balki akademik raqobat paradigmasining oʻzgarishi, yaʼni tarixiy reputatsiya kapitaliga tayangan klassik modeldan indikatorlarga asoslangan strategik boshqaruv modeliga oʻtish bilan izohlanadi.

Mazkur koʻrsatkichning 2014–2024 yillar davomida 5 baravardan ortiq oshishi yangi universitetlarning global akademik maydonda tobora muhim oʻrin egallab borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, yetakchi yangi universitetlarning individual tajribalari ham tahlil qilindi. Nanyang Technological University (Singapur) 2011–2015 yillarda “Academic Reputation Improvement Plan” dasturini qabul qilib, uni THE reytingining Taʼlim berish sifati (Teaching) va Ilmiy tadqiqotlar (Research) ustunlariga moslashtirgan va natijada 2012-yildan 2023-yilgacha THE WURda 350-oʻrindan 36-oʻringa koʻtarilgan. POSTECH (Koreya) “research-driven university” modeli asosida ilmiy faoliyat natijalarini professor-oʻqituvchilarni moliyaviy ragʻbatlantirishning asosiy mezoniga aylantirgan. Paris Sciences et Lettres (Fransiya) bir nechta ilmiy institut va tadqiqot markazlarining konsolidatsiyasi orqali 2015-yilda THE reytingida 1000-talikdan 2024-yilda 40-talikka koʻtarilgan. KAUST (Saudiya Arabistoni) “Research excellence without load” tamoyiliga asoslanib, professorlar uchun oʻqituvchilik yuklamasini minimal darajada saqlagan (2-jadval).

2-jadval

Yangi universitetlarning mintaqaviy benchmarking koʻrsatkichlari¹⁰

№	Mintaqa	Yetakchi universitet (asos solingan yili)	THE WUR 2024 oʻrni	Xalqaro professorlar ulushi (%)	Sanoat bilan hamkorlik daromadi (Industry Income)(%)	Ilmiy iqtiboslilik darajasi (Citations) koʻrsatkichi
1	Osiyo	Nanyang Technological University (Singapur, 1991)	36	62	27	94.1
2	Yaqin Sharq	KAUST (Saudiya Arabistoni, 2009)	101–150	74	31	88.6

¹⁰ Tadqiqot natijalariga asosan muallif tomonidan yaratilgan.

3	Yevropa	PSL (Fransiya, 2010)	40	45	22	91.3
4	Avstraliya	UTS (University of Technology Sydney, 1988)	133	41	24	86.9
5	Markaziy Osiyo	NUU (O'zbekiston, 2021)	–	28	18	57.4

Mintaqaviy benchmarking tahlili natijalariga ko'ra, 2014–2024 yillar oralig'ida yangi universitetlarning eng tez o'sish sur'ati Osiyo va Yaqin Sharq mintaqasida kuzatilgan. Xususan, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy va Saudiya Arabistonidagi oliy ta'lim muassasalari o'z rivojlanish strategiyalarida indikatorlarga asoslangan boshqaruv tizimini muvaffaqiyatli tatbiq etgani aniqlandi. Ushbu universitetlar modeli uchta umumiy tamoyilga asoslanadi: samaradorlikka yo'naltirilgan boshqaruv, xalqaro ochiqlik hamda innovatsion muhitning shakllantirilishi.

Ushbu universitetlarning umumiy tajribasi shuni ko'rsatdiki, yangi universitetlar uchun reyting natijasiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar quyidagilardan iborat: integratsiyalashgan boshqaruv tizimi – indikatorlar strategik rejalashtirishning asosi sifatida ishlatiladi; natijadorlikka asoslangan resurs taqsimoti – moliyalashtirish KPI bilan bevosita bog'langan; xalqaro hamkorlikning kengayishi; innovatsion faoliyatni tijoratlashtirish; raqamli boshqaruv – “ranking dashboard” tizimlari orqali real vaqtli monitoring.

Yangi va an'anaviy universitetlar indikatorlarining o'rtacha taqqoslanishi shuni ko'rsatdiki, yangi universitetlar Ta'lim berish sifati (Teaching) va Ilmiy tadqiqotlar (Research) ko'rsatkichlari bo'yicha nisbatan pastroq natijalarga ega bo'lsa-da, Xalqaro ko'rinish (International Outlook) va Ilmiy iqtiboslilik darajasi (Citations) indikatorlari bo'yicha sezilarli ustunlikka ega (3-jadval).

3-jadval

Yangi va an'anaviy universitetlar indikatorlarining o'rtacha taqqoslanishi ¹¹

Indikator	Yangi universitetlar (≤50 yil)	An'anaviy universitetlar (>100 yil)	Farq (%)
Ta'lim berish sifati (<i>Teaching</i>)	21.4	31.6	-10.2
Ilmiy tadqiqotlar (<i>Research</i>)	25.1	33.4	-8.3
Ilmiy iqtiboslilik darajasi (<i>Citations</i>)	34.7	26.2	+8.5
Xalqaro ko'rinish (<i>International Outlook</i>)	15.9	7.8	+8.1
Sanoat bilan hamkorlik daromadi (<i>Industry Income</i>)	2.9	1.0	+1.9

¹¹ THE WUR asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Xususan, ilmiy iqtiboslilik darajasi ko'rsatkichi bo'yicha farq +8,5 foizni, xalqaro ko'rinish bo'yicha esa +8,1 foizni tashkil etgani aniqlangan. Bu holat yangi universitetlar strategik modelining asosiy xususiyatini, ya'ni global mobillik va qo'shma ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilishini ko'rsatadi.

Reyting metodologiyasi nuqtai nazaridan, yangi universitetlarda besh asosiy ustun bir-birini qisman to'ldiruvchi va kompensatsiya qiluvchi mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Jumladan, Ta'lim va Tadqiqot ko'rsatkichlarining dastlabki bosqichlarda pastroq bo'lishi Ilmiy iqtiboslilik darajasi va Xalqaro ko'rinish indikatorlari orqali qoplanadi, sanoat bilan hamkorlik daromadi esa keyingi bosqichda universitetning iqtisodiy barqarorligini ta'minlab, tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu mexanizm yangi universitetlar rivojlanish modelining asosiy strategik tamoyillaridan biri sifatida asoslandi.

Reputatsiya (nufuz) indikatorining shakllanish mexanizmi ham tahlil qilinib, uning yangi universitetlarda statik emas, balki ilmiy natijalar, xalqaro hamkorlik, ta'lim sifati va innovatsion ekotizim omillarining integratsiyasi natijasi ekani aniqlandi. So'nggi yillarda yetakchi yangi universitetlar reputatsiya boshqaruvida akademik brendlash konsepsiyasidan foydalanayotgani, bu orqali universitetning global ko'rinuvchanligi va tan olinuvchanligi tizimli ravishda oshirilayotgani asoslab berildi.

Tadqiqotda yangi universitetlar reytinglarga kirish jarayonida duch keladigan metodologik cheklovlar ham aniqlandi: reputatsion inertsianing yuqoriligi – yangi tashkil etilgan universitetlar qisqa muddatda yuqori reputatsiya balliga erisha olmaydi; til va nashr madaniyati asimmetriyasi – Scopus va Web of Science bazalarining 90 foizi ingliz tilidagi manbalardan tashkil topgan; resurs va samaradorlik o'rtasidagi ziddiyat – reytinglar ko'p hollarda moliyaviy salohiyatni ham o'lchaydi.

O'zbekiston kontekstida olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yangi tashkil etilgan universitetlarning asosiy vazifasi milliy ta'lim siyosati bilan xalqaro reyting talablarini uyg'unlashtirishdan iborat. Mazkur bob xulosalari yangi universitetlar, jumladan Yangi O'zbekiston Universiteti uchun xalqaro reytinglarga kirishning asosiy sharti sifatida indikatorlarga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantirish va ichki asosiy ko'rsatkichlar tizimini THE metodologiyasiga to'liq integratsiya qilish zarurligini asoslab berdi hamda reytingga yo'naltirilgan boshqaruv modelining nazariy va empirik poydevorini shakllantirdi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O'zbekiston Universitetining xalqaro reytingga kirish strategiyasi va boshqaruv mexanizmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Yangi O'zbekiston Universitetining (YO'U) flagship universitet sifatidagi joriy holati tahlil qilingan, THE World University Rankings reytingiga kirish uchun zarur bo'lgan strategik yo'l xaritasi ishlab chiqilgan hamda reytingga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlari asoslangan.


Ilmiy adabiyotlarda flagship universitet beshta fundamental belgi bilan tavsiflanadi: Ilmiy ustunlik (Research excellence), akademik mustaqillik (academic autonomy), innovatsion salohiyat (innovation capacity), xalqaro ochiqlik (internationalisation) va qobiliyatli yoshlarni jalb qilish (talent attraction). Mazkur

belgilar bo'yicha YO'Uning joriy holatini baholash maqsadida 2025-yil oktabr-noyabr oylarida 213 nafar respondent (talabalar va yosh tadqiqotchilar) ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma 5 ballik Likert shkalasi asosida tuzilgan bo'lib, o'rtacha qiymatni hisoblashda quyidagi formula qo'llandi:

$$\bar{X} = \frac{\sum(x_i \cdot f_i)}{N}$$

